

O‘ZBEK KOMEDIYALARINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI XUSUSIDA

Jo‘rayev Murodulla Alishboyevich

Jizzax davlat pedagogika universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, dotsent

ANNOTATSIYA

Maqolada o‘zbek komediyalarining tarixan rivojlanish bosqichlari, janrning poetik jihatdan takomillashib borish jarayonlari XX asr o‘zbek komediyalari, ularning badiiy o‘ziga xosliklari tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: Janr, komediya, tarbiyaviy-estetik, estetik tanqid, teatr, axloqiy muammolar, hayotiy kulgi, konfliktsizlik.

ABSTRACT

The article examines the stages of historical development of Uzbek comedies, the processes of poetic improvement of the genre, Uzbek comedies of the 20th century, and their artistic peculiarities.

Key words: Genre, comedy, educational-aesthetic, aesthetic criticism, theater, moral problems, life laughter, non-conflict.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются этапы исторического развития узбекской комедии, процессы поэтического совершенствования жанра узбекских комедий XX века, их художественные особенности.

Ключевые слова: Жанр, комедия, воспитательно-эстетическая, эстетическая критика, театр, нравственные проблемы, жизненный смех, бесконфликтность.

KIRISH

O‘zbek adabiyotimizda komediya janriga o‘tgan asr boshlarida asos solingan bo‘lib, Hamza o‘zining: “Tuhmatchilar jazosi”, “Maysaraning ishi”, “Muxtoriyat yoki avtonomiya” kabi asarlari bilan nafaqat komediya janrini boshlab berdi, balki uning mustahkam poydevorini ham yaratdi. Bu sohada Abdulla Qahhor to‘rtta sahna asari bilan, Bahrom Rahmonov o‘zining “Yurak sirlari”, Uyg‘un “Parvona”, “Qaltis hazil”, keyinchalik Hamid G‘ulom “Toshbolta oshiq”, Erkin Vohidov “Oltin devor”, Ramz Bobojon “Tog‘a jiyanlar”, Said Ahmad “Kelinlar qo‘zg‘oloni”, “Kuyov”, Shuhrat

“Besh kunlik kuyov”, O‘tkir Hoshimov “To‘ylar muborak”, Abduqahhor Ibrohimov satirik asarlari bilan komediya janrini mustahkamladilar va uni rivojlantirdilar. Shuni mamnuniyat bilan ta’kidlash lozimki, o‘zbek milliy komediya miz qisqa tarixga ega bo‘lsa ham, u jahon andozalari talabiga javob beradigan darajaga ko‘tarila oldi. Xususan, “Maysaraning ishi”, “Shohi so‘zana”, “Kelinlar qo‘zg‘oloni” jahonga mashhur bo‘lib, ko‘plab qardosh respublikalar va xorijiy mamlakatlarda teatr sahnalarida qo‘yilib, muvaffaqiyat qozonganligi bunga yorqin dalildir.”¹

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

E’tirof etish kerakki, komediya janrining taraqqiyoti doimo bir maromda kechmagan. Unda ko‘tarilgan adolat, to‘g‘ri so‘zlik, axloqiy muammolar, estetik tanqid hammaga ham yoqavermagan, buning oqibatida ko‘pgina ijodkorlar nohaq jabr ko‘rganlar, moddiy va ma’naviy tomondan azoblanishgan. Shunga qaramasdan ular xalqqa xursandchilik ulashuvchi, ularga estetik ta’sir o‘tkazuvchi asarlar yozishdan o‘zlarini tiymaganlar. Yuqorida aytilganidek, o‘zbek komediyana visligi Hamza, Abdulla Qahhor, Uyg‘un, Yashin, Bahrom Rahmonov, Hamid G‘ulom, Said Ahmad, Sharof Boshbekov, Abduqahhor Ibragimov, Mashrab Boboev ijodlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan bosqichlarda ayrim yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Biroq bu yutuqlar osonlikcha, o‘z-o‘zidan bo‘lgani yo‘q. Hamza komediyalarida boshlangan ayovsiz badiiy-estetik tanqid nopok kimsalarni fosh etdi. Shu bilan birga adabiyotimizda qator komediyalar yaratilishiga ham turtki bo‘ldi. Komediya janrining o‘ziga xos tarbiyaviy-estetik ahamiyatini to‘g‘ri anglagan Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Sharof Boshbekov singari ijodkorlarimiz davr ruhidan kelib chiqib hamda umuminsoniy ideallarni ulug‘lagan holda, Hamza boshlagan an‘analarni davom ettirib, hayotiy kulgiga boy komediyalar yaratganlar. Zero, bunday kulgiga serob asarlar yangilanayotgan jamiyat hayoti va xalqimiz talablariga, uning yuksak didi, zavqi va nozik tabiatiga ham to‘la mos kelar edi.

Komediya dramatik janr sifatida voqelikning, turmushning turli tomonlarini tasvirlashda shakl va mazmun jihatidan boyidi, yangicha sifatlarga ega bo‘ldi. Bu sifatlarni, albatta, o‘z-o‘zidan tayyor holda emas, balki real shart-sharoit, muhim omillar taqozosiga ko‘ra vujudga keldi. Xalq og‘zaki ijodi, jahon va yevropa adabiyoti tajribalarining samarali ta’siri-o‘zbek komediyana visligi rivojiga yordam bergan muhim omillar hisoblanadi. O‘zbek dramaturglari madaniy merosdan ijodiy foydalanishga alohida e’tibor berib, xalq og‘zaki ijodi, jahon va yevropa adabiyotlarining ibratli tomonlari, ilg‘or an‘analarini izchillik bilan davom ettirdilar.

¹Abdusamatov H. Drama nazariyasi.-T.: Adabiyot va san’at. 2000. 181-b.

NATIJALAR

Ikkinchi jahon urushi yillari va undan keyingi yillarda yaratilgan “Qaltis hazil” (Uyg‘un), “Muhabbat” (Tuyg‘un) komediyalari garchand katta shuhrat qozonmagan bo‘lsa-da, o‘sha davr komediyalariga xos bo‘lgan xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan edi. Zero, o‘sha davrda hukm surgan konfliktsizlik nazariyasi boshqa adabiy janrlar qatorida komediya janriga ham o‘z salbiy ta‘sirini o‘tkazdi. G‘oyaviy-badiiy jihatdan yuksak komediyalar yaratilishiga qarshi jiddiy to‘siq bo‘ldi. Zotan, shaxsga sig‘inish davri yillarida tanqid, xususan, o‘z-o‘zini tanqid qilish cheklab qo‘yilgan, nuqson va illatlarni xaspo‘shlash hamda voqelikni bo‘yab-bezab ko‘rsatish avj olgan edi. Bu hol satira va yumorning rivojiga, jumladan, komediyana vislikning taraqqiy etishiga ham o‘zining salbiy ta‘sirini ko‘rsatdi.

Badiiy asarda sun‘iy konflikt mavjud bo‘lsa, xarakter hayotiylikdan mahrum bo‘lib qoladi. Misol uchun, Tuyg‘unning “Muhabbat” komediyasida xuddi shu holni ko‘rish mumkin. Komediya qahramonlari Ravshan, Yetov, Jo‘raxon, Sergey Ivanovich, O‘ta hamda Rustam otalar urushdan keyin jonbozlik bilan mehnat qiladilar. Eng zarur inshootlar- gidrostansiya, yangi uy, klub, hammomlar qurishadi. Ishda uchragan qiyinchiliklarni tezlik va osongina bartaraf etadilar. Dramaturg “Muhabbat” komediyasida urushdan keyingi xalq xo‘jaliklarini qaytadan tiklashdagi qator qiyinchiliklarni Yetov kabi mehnat qilmay yashashni istovchi shaxslar bilan bo‘lgan keskin kurashni aks ettirib berishi kerak edi. Muallif buning o‘rniga qahramonlarning yengil-yelpilik bilan erishgan yutuqlarini sanash bilan kifoyalanadi. Komediya voqealar shunday yengil-yelpi, yuzaki yaratilganki, natijada personajlar jonli obrazlar-xarakterlar darajasiga ko‘tarila olmasdan, voqelarni bayon qiluvchi sxematik obrazlarga o‘xshab qolgan.

MUHOKAMA

XX asr 40-yillari oxirida Abdulla Qahhorning “Yangi yer” (1949) komediyasi yaratilishi o‘zbek komediyana visligining yuksalayotganidan darak berdi. Unda hayotda uchrovchi turli illatlarning kulgi ostiga olinishi, hayotiy, ayni paytda, kulgili holat va esda qolarli xarakterlarning jonli aks ettirilishi, ularning tipik vaziyatlarda ochib berilishi asar muvaffaqiyatini ta‘minladi. Abdulla Qahhor bu asarni yaratishda dastlabki yutuq bilan cheklanib qolmadi, balki, asarning g‘oyaviy mazmunini, xususan, komediya konfliktini yangi-yangi hayotiy detallar hisobiga boyitdi. Hayotdagi har xil nuqsonlarni yorqin aks ettirib, ularning halokatga mahkumligini ochib berdi. Shundan so‘ng, yana “Yangi yer” komediyasini mukammallashtirib, har jihatdan sayqal berib “Shohi so‘zana” (1951) nomi bilan e‘lon qildi. Darhaqiqat, adabiyotshunos olim Usmonjon Qosimov ta‘kidlaganidek; “Abdulla Qahhor o‘zining “Shohi so‘zana”

(Yangi yer), “Og‘riq tishlar”, “Tobutdan tovush” (So‘nggi nusxalar) va “Ayajonlarim” kabi komediyalari bilan o‘zbek san’atida ulkan dramaturg bo‘lib qoladi.”¹

Yuqorida e’tirof etilganidek, Abdulla Qahhor “Shohi so‘zana” keltirgan shuhratdan ruhlanib, yangi komediyalar yaratishga kirishdi. “Og‘riq tishlar” (1954), “Tobutdan tovush” (1962) asarlari ana shu ilhomlanish mevasi sifatida maydonga keldi. “Og‘riq tishlar”da dramaturg ezgu axloq-odob doirasiga nomunosib xati-harakatlar bilan kulgimizga sabab bo‘layotgan ba’zi kimsalarni fosh qiladi. Asarda qahhorona o‘tkir satirik ruh yetakchi vazifasini o‘taganligi ham uning ta’sirchanligini oshirgan.

XULOSA

Umuman olganda, Abdulla Qahhor yaratgan Mavlon, Xolniso, Hamrobibi (“Shohi so‘zana”), Suxsurov, Netayxon, Qori (“Tobutdan tovush”), Marasul, Fotima, Zargarov, Xumorxon (“Og‘riq tishlar”) singari personajlar butun mohiyati bilan, turmush tarzimizga zidligi bilan, qolaversa, ijobiy kuchlar qarshisida o‘z ichki olami qashshoqligini yashirishga urinishi bilan tomoshabinlar kulgisiga sabab bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Abdusamatov H. Drama nazariyasi.-T.: Adabiyot va san’at. 2000. 181-b.
2. Qosimov U. O‘zbek adabiyoti va tanqidchiligi tarixidan lavhalar.-T.: Iqtisod-moliya. 2006 . 60-b.

¹Qosimov U. O‘zbek adabiyoti va tanqidchiligi tarixidan lavhalar.-T.: Iqtisod-moliya. 2006 . 60-b.